

Vazir, Hokim va Yoshlar uchrashuvi



Bugun 23 iyun kuni Sirdaryo viloyati Boyovut tumani yoshlari bilan Avtomobil yo'llari qo'mitasi raisi o'rinnbosari v.b. Otanazar Jumanyazov hamda tuman hokimligi o'rtasida ochiq muloqot tarzida "Yoshlar uchrashuvi" bo'lib o'tdi.

Uchrashuvni tuman hokimining yoshlar ishlari bo'yicha o'rinnbosari ochib berdi.

Uchrashuvda rasmiyatichilik chetga surilib yoshlar bilan to'liq ochiq tarzda muloqot bo'lib o'tdi.

Shuningdek, tuman yoshlaringin bugungi kundagi muammolari o'rganilib 5 nafar yoshlarga yo'lsozlar safida xalqimizga xizmat qiluvchi yo'llarni qurish ishlarida ham nafas bo'lib ishlash nasib etdi, ya'ni 5 nafar ishsiz yoshlar ish bilan taminlanib Boyovut tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasiga ishga olindi.



Shuningdek yoshlarning bugungi kundagi qiziqishlariga alohida e'tibor qaratilgan holda IT sohasiga qiziqish bildirgan 2 ta yoshlarni tuman markazida tashkil etilgan IT-o'quv markazida o'qishlari uchun to'lov mablag'lari to'liq qoplab berildi.

Bundan tashqari "Yoshlar bizning kelajagimiz yoshlarga alohida e'tibor qaratish lozimdir, ertaga mana shu yoshlar bizning ishimizda davomchisidir" – deb, ta'kidlab o'tdi O. Jumanyazov hamda yoshlarni kitobxonlikka qiziqishlarini oshirish maqsadida kitoblar jamlanmasidan iborat hamda boshqa estalik sovg'alari ularshildi.

Avtomobil yo'llari qo'mitasi

Matbuot xizmati